Boshlang‘ich sinfda ona tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalari

Arslanbekova Shaxnozaxon Dilshatbek qizi
Andijon davlat universiteti

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo‘lishiga alohida e’tibor berilmoqda. Savod o‘rgatish davrida o‘qitishning maqsad va vazifalari O‘quvchilarning boshlang‘ich sinfda ona tili ta’limi bo‘yicha egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalari, ularga qo‘yiladigan talablar davlat hujjati bo‘lgan o‘quv dasturida belgilab berilgan. Shuningdek, savod o‘rgatish dasturida ham savod o‘rgatish jarayoni va uning vazifalari aniq ko‘rsatilgan. Dasturga ko‘ra 1-sinfga kelgan bolalarning savodini chiqarish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. Ular boshlang‘ich sinf davomida sidirg‘a o‘qish va savodli yozish kabi adabiy til me’yorlarini egallaydilar. Savod o‘rgatish dasturida savod o‘rgatish jarayoni ikki davrga bo‘lib ko‘rsatilgan: alifbegacha bo‘lgan tayyorlov davri va alifbo davri. “Alifbe” darsligiga asoslangan holda savod o‘rgarish o‘quv darslari o‘quvchilarni 4 oy davomida elementar o‘qishga, yozuv darslari esa yozishga o‘rgatilishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan ona tili va o’qish gi darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o‘qish va nutq o‘stirish bo‘limida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuniga; o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, ma’lum darajadagi tezlik bilan ifodali o‘qishga o‘rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g‘oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. Ona tili va o’qish gi darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning ta’sirchanligi ongli idrok etishlarini ta’minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta’limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o‘qish mashg‘ulotlarining yozma nutq bilan bog‘lanish kabi masalalar aniq kiritilgan. Ona tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalargi fani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan darslar o‘z mohiyati, maqsad va

vazifalariga ko‘ra taflim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiytalimiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim darslariga o‘quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang‘ich sinflardanoq «dars» degan muqaddas so‘zdan bezib qolmasliklari lozim. O‘qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Asosiy e’tibor, tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchini qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darsi alohida ajralib turadi. Ona tili va o‘qish darslari orqali o‘quvchining savodi chiqadi. U yozishni va o‘qishni o‘rganadi. Boshqa fanlarda bo‘lgani kabi ona tili va o‘qish darslarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanib dars olib borish ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini o‘stirishga yordam beradi. Shu sababli ona tili va boshqa darslarda axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida dars o‘tish davr talabi deb aytishimiz mumkin. Ona tili va o‘qish darslarida multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, axborotning xilma-xillligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi. O‘quvchilarga ta’lim olishda ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu o‘quvchilarda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi; o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi; o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi; o‘quvchi mavzu bo‘yicha yangi fikrlarni bildirishga va o‘ziga o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi. Ushbu jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchi butun dunyo ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlardan doimo xabardor bo‘lishi va ularni o‘zlashtirib o‘z faoliyati davomida qo‘llay olishi lozim. Muxtasar qilib aytganda, Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan. Eski darsliklar til strukturasini o‘rgatishga qaratilgan.

Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko‘ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg‘u berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor so‘z, uning ma’nolari, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari, lug‘at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
3. Hasanboyeva O., Sattorova G. **Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Shodmonova Sh.S., To‘xliyeva Sh.T. **Pedagogika nazariyasi va tarixi.** – Toshkent: Fan, 2020.
5. Raximova N. **Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.** – Toshkent: Noshir, 2021.